

DIFFERENTIAL YONDASHUV VA PROFESSIONAL-TA'LIMIY KOMPETENSIYALAR NAZARIYASI

Xalimjonova Mavluda O'ktamjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Email: xalimjonov3202@gmail.com

Annotation

Ushbu maqolada differensial yondashuvning nazariy asoslari, uning professional-ta'lmiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli va ahamiyati keng yoritilgan. Maqolada har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim berish orqali ularning kasbiy yo'nalishga bo'lgan tayyorgarligi qanday shakllanishi izohlangan. Differensial yondashuv asosiy fikrlash kasbiy qiziqish, ijodiy yondashuv va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье раскрыты теоретические основы дифференцированного подхода и его важность в формировании профессионально-образовательных компетенций. Показано, как обучение с учетом индивидуальных особенностей учащихся способствует их подготовке к профессиональной ориентации. Также рассмотрены механизмы развития у учащихся критического мышления, профессиональных интересов, творческого подхода и коммуникативных навыков.

Abstract

This article explores the theoretical foundations of the differential approach and its significant role in the formation of professional-educational competencies. It highlights how personalized education, considering each student's individual characteristics, can effectively prepare them for professional orientation. The article

also describes mechanisms for developing students' critical thinking, professional interest, creative attitude, and communication skills through differential instruction.

Kalit so‘zlar: differensial yondashuv, kompetensiya, professional-ta’limiy kompetensiyalar, shaxsiy yondashuv, talim texnologiyasi.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Yangi iqtisodiy, axborot-kommunikatsion sharoitlar jamiyat hayotining barcha jabhalarida innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimi oldida yosh avlodni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash, moslashuvchan, ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy pedagogik qarashlar ichida kompetensiyaviy yondashuv alohida o‘rin tutadi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi egallagan bilim va ko‘nikmalarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan, tahlil qila oladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, o‘z kasbiy yo‘nalishini ongli ravishda tanlaydigan shaxs sifatida rivojlanishi kerak. Shunday sharoitda, ta’lim jarayonini har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish — ya’ni differensial yondashuvga tayanish zarurati tug‘iladi. Differensial yondashuv — bu o‘quvchilarning bilish darajasi, intellektual salohiyati, psixologik va ijtimoiy holatlari, motivatsiyasi hamda shaxsiy qiziqishlariga mos holda ta’lim berish tamoyiliga asoslangan yondashuvdir. Bu yondashuv orqali o‘qituvchilar har bir o‘quvchining individualligini hurmat qilgan holda, unga mos metodlar, topshiriqlar, dars shakllari va vositalarini tanlab, ta’lim sifatini oshirishga erishadilar. Ayniqsa, o‘quvchilarda professional-ta’limiy (proff-edu) kompetensiyalarini erta bosqichdan boshlab shakllantirishda differensial yondashuv samarali natija beradi. Professional kompetensiyalar — bu o‘quvchining kelgusidagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy sifatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalarini shakllantirish maktab

ta'limining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy yo'nalishini ongli tanlashi, mehnat bozoridagi raqobatga tayyor bo'lishi va o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishiga xizmat qiladi[1-2].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kasbiy orientatsiyasini kuchaytirish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularni zamon talablari asosida tayyorlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston maktabi" konsepsiysi doirasida ta'lim mazmuni va uslublari tubdan yangilanmoqda. Shu bois, professional-ta'lmiy kompetensiyalarni rivojlantirishda differensial yondashuvning o'rni va metodologik asoslarini chuqur tadqiq qilish, amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi davrning dolzarb talablaridan biri hisoblanadi.

Ushbu ilmiy ish aynan shunday dolzarb masalani o'rganishga, ya'ni differensial yondashuv asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarida professional-ta'lmiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, bu orqali zamonaviy o'quvchining har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ilmiy-amaliy asoslar taqdim etiladi.

ASOSIY QISM

1.Differensial yondashuv tushunchasi va mohiyati

Zamonaviy ta'lim jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish muhim tamoyillardan biriga aylangan. Bu borada differensial yondashuv ta'limni shaxsga yo'naltirish, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, imkoniyatlari va rivojlanish sur'atlarini inobatga olgan holda tashkil etishning samarali shakli sifatida e'tirof etiladi. Differensial yondashuv — bu o'quvchilarning individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari, qobiliyatları ojlarini tahlil qilgan holda ta'lim mazmuni, metodlari va shakllarini moslashtirishga asoslangan pedagogik yondashuvdir.

Ushbu yondashuv quyidagi asosiy omillarni inobatga oladi:

- o'quvchining bilish va anglash qobiliyatları;
- o'zlashtirish va eslab qolish tezligi;

- psixologik-emotsional holati va hissiy barqarorligi;
- shaxsiy intilishlari, ijtimoiy tajribasi hamda o‘zini anglash darajasi;
- kasbiy qiziqish va moyilliklari, faoliyat turlariga bo‘lgan motivatsiyasi.

Differensial yondashuv orqali o‘quvchilar individual ehtiyojlarga mos tarzda rivojlantiriladi. Bu yondashuv o‘qituvchidan yuqori darajada kasbiy mahorat, o‘quvchini chuqur tahlil qilish, unga mos yondashuvni tanlay olish, mos metodik vositalar va topshiriqlarni qo‘llashni talab etadi. O‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarni moslashtirilgan shaklda taqdim etish orqali ularning o‘zlashtirish darajasi ortadi, mustaqil fikrlash rivojlanadi, kasbiy orientatsiyaga yo‘naltirilgan ichki motivatsiya shakllanadi[3]. Differensial yondashuvning pedagogik mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin:bu yondashuv har bir o‘quvchining o‘rganish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga asoslanadi;o‘quvchilar orasidagi individual tafovutlarni inkor etmasdan, ularni rivojlantirish vositasi sifatida qaraydi;o‘quv jarayonini bir xil shakl va uslublar asosida emas, balki har bir shaxsga mos ravishda tashkil etishni nazarda tutadi;o‘qituvchi o‘quvchini “tayyor iste’molchi” emas, balki o‘z bilimini faol ravishda egallovchi, fikrlovchi va rivojlanayotgan shaxs sifatida ko‘radi. Shuningdek, differensial yondashuv o‘quvchilarda quyidagi ijobiy pedagogik natijalarini ta’minlaydi:shaxsiy yondashuv asosida o‘zini namoyon qilish imkoniyatini oshiradi;o‘quvchining qiziqishi va moyilligiga asoslangan ta’lim mazmuni orqali ta’limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi; bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi ortadi;kasbiy yo‘nalishni anglash va tanlashda o‘z kuchi va salohiyatiga ishonch hosil qiladi.Ta’limda differensial yondashuv qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ular o‘zlarini erkin his qilgan holda ta’lim jarayonida ishtirok etadilar, ijodiy fikrlashga intiladilar. Ayniqsa, bugungi kunda kasb tanlash muhim ijtimoiy va pedagogik muammoga aylangan bir davrda, ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar kasbiy orientatsiyaga yo‘naltiriladi, ularda professional kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.Xulosa qilib aytganda, differensial yondashuv o‘quvchini rivojlantirishga qaratilgan, individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantiruvchi, zamonaviy ta’lim tamoyillariga mos

keluvchi samarali yondashuvdir. U nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, balki o‘quvchining hayotiy faoliyatga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi[4-7].

2. Professional-ta’limiy (proff-edu) kompetensiyalar nazariyasi

Bugungi globallashuv va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda har bir shaxsdan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, moslashuvchanlik, innovatsion fikrlash va o‘z kasbiy faoliyatini ongli ravishda tashkil etish qobiliyatları talab etilmoqda. Shu sababli ta’lim tizimining asosiy vazifasi — o‘quvchilarda nafaqat an’anaviy bilim va ko‘nikmalarni, balki kelgusida kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan kompleks kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Professional-ta’limiy kompetensiyalar — bu o‘quvchilarda kelgusidagi mehnat faoliyatiga tayyorgarlikni ta’minlovchi bilim, ko‘nikma, malaka, ijtimoiy va psixologik tayyorgarlik tizimini ifodalaydi. Bu kompetensiyalar nafaqat o‘quv mazmunini egallashni, balki uni amaliy hayotda qo‘llay olishni, muammolarni hal qilishni, tanqidiy va ijodiy fikrlashni hamda kasbiy faoliyatda mustaqil harakat qilishni o‘z ichiga oladi. Professional-ta’limiy (proff-edu) kompetensiyalar quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi: Muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari — bu o‘quvchilarning yangi yoki notanish holatlarda muammoni aniqlash, uni tahlil qilish va samarali yechim topish bo‘yicha shakllangan fikrlash uslubidir. Bu ko‘nikma o‘quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Tanqidiy va ijodiy fikrlash — bu o‘quvchining ma’lumotlarga asoslanib, izchil va mantiqiy mulohaza yurita olishi, mavjud fikrlarni tahlil qilish, baholash va yangicha g‘oyalar yaratish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash — an’anaviy yondashuvlardan tashqariga chiqib, yangi qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Axborotni izlash, tahlil qilish va undan foydalanish malakasi — zamonaviy axborot makonida to‘g‘ri axborotni tanlay olish, uni baholash, qayta ishslash va amaliy faoliyatda qo‘llay olish bugungi o‘quvchining muhim kompetensiyasidir. Bu malaka o‘quvchining raqamli savodxonligini oshiradi. Kasbiy yo‘nalishga oid dastlabki tasavvurlar — o‘quvchilarda keljakdagi kasbiga doir umumiyl tasavvurlar, ushbu kasbning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati, zarur ko‘nikmalar va ish faoliyati xususiyatlari

haqida shakllangan bilimlarni anglatadi. Bu o‘quvchilarga kasb tanlashda yo‘nalish beradi.Jamoada ishslash va kommunikatsiya qobiliyatları — har bir o‘quvchi uchun ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish, boshqalar bilan muloqot qilish, o‘z fikrini aniq ifodalash, guruhda ishslash va fikrlarni muhokama qila olish zarur ko‘nikmalardandir. Ushbu kompetensiya zamonaviy mehnat bozorida juda qadrlanadi.Bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta’lim tizimida integratsiyalashgan, faoliyatga yo‘naltirilgan va real hayotiy holatlarga asoslangan o‘qitish uslublarini joriy etish muhim hisoblanadi. Jumladan, loyiha asosida o‘qitish, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, kasbiy amaliyotga yaqin topshiriqlar, simulyatsiyalar va rolli o‘yinlar orqali professional-ta’limiy kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin[8-9].

3. Differensial yondashuv asosida professional-ta’limiy kompetensiyalarni shakllantirish

Zamonaviy ta’limda differensial yondashuv — bu har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qiziqish doirasi, motivatsiyasi, ijtimoiy tajribasi hamda psixologik holatini chuqur tahlil qilgan holda o‘qitish strategiyasini tanlashni anglatadi. Bu yondashuv ayniqsa professional-ta’limiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali hisoblanadi, chunki har bir o‘quvchining kasbiy qiziqishi, keljakdagi yo‘nalishi va tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘ladi.

Differensial yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirish

Har bir o‘quvchi uchun alohida ta’lim trajektoriyasi belgilanadi. Masalan, texnika sohasiga qiziqqan o‘quvchi uchun fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar, laboratoriya ishlari, konstruktorlik mashg‘ulotlari orqali kasbiy yo‘nalish beriladi. Bu yondashuv o‘quvchini o‘z salohiyatiga mos tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Iqtidorli o‘quvchilar bilan chuqurlashtirilgan ishslash

Iqtidorli, yuqori o‘zlashtirishga ega o‘quvchilar uchun murakkabroq, mustaqil izlanishni talab qiluvchi, innovatsion yondashuvlar asosidagi topshiriqlar beriladi. Bu orqali ularning ijodiy salohiyati ochiladi, tashabbuskorlik va tadqiqotchilik kompetensiyalari rivojlanadi.

3. Qo‘llab-quvvatlovchi metodlar yordamida imkoniyati past o‘quvchilarni rivojlantirish

O‘zlashtirish darajasi nisbatan past bo‘lgan yoki o‘rganishga motivatsiyasi past bo‘lgan o‘quvchilarga psixologik-pedagogik yondashuv asosida individual konsultatsiyalar, ko‘makchi vositalar, interfaol va ko‘rgazmali usullar yordamida bilimlar beriladi. Bu o‘quvchilarda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni oshiradi va kasbiy yo‘nalishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

4. Kasbiy yo‘nalishga oid loyihamalar orqali motivatsiyani kuchaytirish

O‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) muhim o‘rin tutadi. Bu usulda o‘quvchi o‘zini real kasbiy muhitda sinab ko‘radi, mas’uliyatni his qiladi va amaliy tajriba orttiradi. Masalan, tibbiyotga qiziqqan o‘quvchi sog‘liqni saqlash mavzusida loyiha tayyorlashi mumkin[10-11].

5. Differensial baholash tizimi orqali kompetensiyalarni aniqlash va rivojlantirish Baholash ham o‘quvchining individual xususiyatlariga moslashtiriladi. An’anaviy test va yozma ishlar bilan bir qatorda, portfoliolar, diagnostik topshiriqlar, amaliy vazifalar va kuzatuv asosidagi baholash metodlari joriy etiladi. Bu orqali o‘quvchining real kasbiy kompetensiyalari aniqlanadi va rivojlanadi. Differensial yondashuv orqali professional-ta’limiy kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchilarni shunchaki bilim egasi emas, balki kasbiy jihatdan raqobatbardosh, o‘z salohiyatini anglagan va uni amaliyotda qo‘llay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi. Bu metod o‘quvchida quyidagilarni shakllantiradi:

- mustaqil kasbiy yo‘l tanlash qobiliyati;
- real vaziyatlarda muammoni hal qilish ko‘nikmasi;
- jamoada ishlash va liderlik;
- tanqidiy va innovatsion fikrlash;

- o‘zini doimiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj.

Shunday ekan, differensial yondashuvni ta’limga chuqur joriy qilish orqali nafaqat individual ta’lim sifati, balki umuman jamiyatda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa ularning kelajakdagi kasbiy hayotga tayyorlanishini ta’minalash bugungi ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda ta’lim jarayoniga differensial yondashuvni samarali joriy etish o‘quvchilarda professional-ta’limiy (proff-edu) kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir o‘quvchining bilim olish darajasi, qobiliyati, qiziqishlari va ehtiyojlari o‘ziga xosdir. Shu sababli ularni yagona, standart metodlar orqali o‘qitish ko‘p hollarda kutilgan natijalarni bermaydi. Aksincha, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish orqali o‘quvchining intellektual, psixologik va kasbiy salohiyatini to‘liq ochib berish mumkin. Bu jihatdan differensial yondashuv zamonaviy pedagogikaning markaziy g‘oyalaridan biri sifatida qaraladi. Differensial yondashuv asosida professional kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim trajektoriyasini belgilash; o‘zlashtirish darajasiga qarab turlicha yondashuv va topshiriqlarni ishlab chiqish; iqtidorli o‘quvchilar bilan chuqurlashtirilgan ishslash, murakkab topshiriqlar berish; kasbiy yo‘nalishga oid loyihalarda faol ishtirok etish orqali motivatsiyani kuchaytirish; amaliyotga yaqinlashtirilgan mashg‘ulotlar orqali real hayotga tayyorlanish. Shuningdek, professional-ta’limiy kompetensiyalarni — ya’ni muammoli vaziyatlarni hal qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborot bilan ishslash, kasbiy yo‘nalishga oid bilimlar, jamoada ishslash va kommunikatsiya qobiliyatlarini — o‘quvchilarda bosqichma-bosqich, individual yondashuv asosida shakllantirish, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar va innovatsion

strategiyalar bilan uyg‘unlashgan differensial yondashuv o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki hayotiy va kasbiy kompetensiyalarini ham mustahkamlovchi kuchli omilga aylanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim tizimining sifatini oshiradi, o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashgan, fikrlay oladigan, muammoni hal qiladigan va kasbiy faoliyatga tayyor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, differensial yondashuv — bu zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan, sifatli, moslashuvchan va natijaviy yondashuv bo‘lib, uning asosida professional-ta’limiy kompetensiyalarni shakllantirish har bir o‘quvchining yuksak kasbiy yetuklikka erishish yo‘lida mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukodirov, A. A., & To‘xtasinov, A. T. (2017). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
2. Ganieva, M. A. (2020). Kasbga yo‘naltirish asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Xolmatov, N. (2021). Differensial yondashuv asosida ta’lim mazmunini optimallashtirish. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy jurnali, №3, 40–46.
4. Karimov, B. B. (2019). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. Ibragimova, G. I. (2020). Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”.
6. Tursunov, R. N. (2021). “Ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: nazariya va amaliyot”. Innovatsion ta’lim, №4, 12–18.
7. UNESCO (2015). Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. [UNESCO official site]
8. OECD (2019). Future of Education and Skills 2030 – Conceptual Learning Framework. OECD Publishing.

9. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.
10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
11. Shodmonqulova, M. T. (2022). “O‘quvchilarda kasbiy yo‘nalishni shakllantirishda differensial yondashuvning roli”. O‘zbek pedagogik jurnal, №1